


68. Teskari operatsiyalar


Yondosh mavzu:
geologiya
qo'shish, ayirish,
teskari amallar



Shakl qanday yig'ilgan?

- a) Ko'mir qopdan yashikka to'kildi va keyin yana yashikdan qopga qayta solindi. Ko'mirning miqdori o'zgaradimi?
b) Quruq qum namlandi va keyin yana quritildi. Qumning miqdori o'zgaradimi?

- Jasur son o'yladi, unga 57 ni qo'shib, 78 ni hosil qildi. Agar Jasur Madinaga nechani qo'shganini va necha hosil bo'lishini aytsa, Madina Jasur o'ylagan sonni topa oladimi?



**Obyektni dastlabki holatga
qaytaradigan amal
teskari operatsiya deb ataladi.**

- Operatsiyani bajaring va unga teskari operatsiyani o'ylab toping.

a) $400 \xrightarrow{+80} \boxed{}$ $400 \xleftarrow{} \boxed{}$

b) $\boxed{} \xrightarrow{\text{cho'zish}} \boxed{}$ $\boxed{} \xleftarrow{} \boxed{}$

d) $\boxed{} \xrightarrow{\text{to'g'rilash}} \boxed{}$ $\boxed{} \xleftarrow{} \boxed{}$



4. Hisoblang. Nimani sezdingiz?

$$789 - 300 + 300$$

$$563 + 220 - 220$$

$$457 - 223 + 223$$

$$168 + 348 - 348$$

14



5. Amallarni bajaring.

$$a + 11 - 11$$

$$b - 23 + 23$$

$$x + y - y$$



6. Uyni isitish uchun 700 kg ko'mir olib kelindi. Birinchi kun 26 kg ko'mir sarflandi, bu ikkinchi kun sarflanganidan 7 kg kam. Necha kilogramm ko'mir qoldi?



7. O'zbekiston Geologiya muzeyiga dushanba kuni 280 nafar kishi tashrif buyurdi, bu seshanba kungidan 10 kishiga, chorshanba kungidan 40 kishiga kam. Shu 3 kun davomida muzeyga necha nafar kishi tashrif buyurdi?



8. Berilgan operatsiyalarni bajaring. Teskari operatsiyalar o'ylab toping. Qanday qiziqarli narsalarni ko'rishingiz mumkin?

Obyekt	Operatsiyalar	Natija
● ▲ ■	Teskari tartibda qo'ying	?
276	Yuzliklar raqami bilan birliklar raqamining o'rnini almashtiring	?
AYIQ	So'zni teskari yozing	?



9. Tenglamani neching.

$$(561 - x) - 98 = 132$$

$$(y - 211) + 117 = 658$$



10. Ko'mir qazib olinadigan joy karyer deb ataladi. Karyerda 156 ta buldozer ishlaydi. Buldozerlar ekskavatorlardan 78 ta kam. Karyerda hammasi bo'lib nechta mashina ishlaydi?